- 10. Gradient tushish usullari va ularning modifikatsiyalari.** *Tayanch so‘zlar:* gradient descent, SGD, Momentum, RMSProp, Adam
- 11. O‘qitish tezligi, epoch va batch size tushunchalari.** *Tayanch so‘zlar:* learning rate, epoch, mini-batch, convergence, training stability
- 12. Neyron tarmoqlarda overfitting va uning oldini olish usullari.** *Tayanch so‘zlar:* overfitting, dropout, early stopping, regularization, data augmentation
- 13. Neyron tarmoqlarda normallashtirish usullari.** *Tayanch so‘zlar:* batch normalization, layer normalization, standardization, training stability, convergence
- 14. Konvolyutsion neyron tarmoqlar va ularning asosiy qatlamlari.** *Tayanch so‘zlar:* CNN, convolution, pooling, feature map, kernel
- 15. CNN modellarining kompyuter ko‘rishdagi qo‘llanilishi.** *Tayanch so‘zlar:* image classification, object detection, segmentation, feature extraction, vision tasks

- 16. Rekurrent neyron tarmoqlar va vaqt ketma-ketliklarini qayta ishlash.** *Tayanch soʻzlar:* RNN, sequence modeling, hidden state, temporal dependence, sequential data
- 17. LSTM va GRU modellarining tuzilishi va afzalliklari.** *Tayanch soʻzlar:* LSTM, GRU, long-term dependency, gates, sequence learning
- 18. Transformer arxitekturasini va attention mexanizmi.** *Tayanch soʻzlar:* transformer, self-attention, encoder, decoder, positional encoding
- 19. Sunʼiy intellektda transfer learning usuli va uning ahamiyati.** *Tayanch soʻzlar:* pre-trained model, fine-tuning, feature reuse, transfer learning, data efficiency
- 20. Autoencoderlar va ularning qoʻllanilish sohalari.** *Tayanch soʻzlar:* autoencoder, encoding, decoding, dimensionality reduction, anomaly detection
- 21. Generativ neyron tarmoqlar va ularning turlari.** *Tayanch soʻzlar:* GAN, VAE, generative model, synthetic data, latent space
- 22. GAN arxitekturasini va generator-diskriminator tamoyili.** *Tayanch soʻzlar:* GAN, generator, discriminator, adversarial learning, synthesis
- 23. Neyron tarmoqlarni baholash mezonlari va validatsiya usullari.** *Tayanch soʻzlar:* validation, test set, accuracy, loss, generalization
- 24. Neyron tarmoqlarda giperparametrlarni tanlash va optimallashtirish.** *Tayanch soʻzlar:* hyperparameter tuning, grid search, random search, optimization, model selection
- 25. Tabiiy tilni qayta ishlashda neyron tarmoqlardan foydalanish.** *Tayanch soʻzlar:* embeddings, sequence model, language model, translation, text classification
- 26. Neyron tarmoqlarni apparat darajasida tezlashtirish vositalari.** *Tayanch soʻzlar:* GPU, TPU, parallel computing, acceleration, inference optimization
- 27. Neyron tarmoqlarda model siqish va kvantlash usullari.** *Tayanch soʻzlar:* pruning, quantization, lightweight model, edge deployment, efficiency
- 28. Tushuntiriladigan neyron tarmoqlar va interpretatsiya usullari.** *Tayanch soʻzlar:* explainability, saliency map, SHAP, LIME, feature importance
- 29. Neyron tarmoqlarning amaliy qoʻllanilish sohalari.** *Tayanch soʻzlar:* tibbiyot, moliya, sanoat, xavfsizlik, aqlli tizimlar
- 30. Sunʼiy intellekt va neyron tarmoqlarning rivojlanish istiqbollari.** *Tayanch soʻzlar:* multimodal model, generativ AI, AGI, autonomous systems, future trends

**“Real vaqt tizimlari” fanidan yakuniy davlat attestatsiya imtixonini uchun
savollar**

(Oʻzbek guruhlariga uchun)

- 1. Real vaqt tizimlari faniga kirish, uning maqsadi va vazifalari.** *Tayanch so'zlar:* real vaqt tizimi, vaqt cheklovi, fan maqsadi, boshqaruv, ishonchlilik
- 2. Real vaqt tizimlari tushunchasi va ularning asosiy xususiyatlari.** *Tayanch so'zlar:* deadline, deterministik ishlash, javob vaqti, predictability, timing constraints
- 3. Qattiq, yumshoq va qat'iy bo'lmagan real vaqt tizimlari.** *Tayanch so'zlar:* hard real-time, soft real-time, firm real-time, deadline, system behavior
- 4. Real vaqt tizimlarining qo'llanilish sohalari.** *Tayanch so'zlar:* sanoat avtomatikasi, robototexnika, telekommunikatsiya, tibbiy qurilmalar, transport
- 5. Real vaqt operatsion tizimlari va ularning vazifalari.** *Tayanch so'zlar:* RTOS, scheduler, interrupt handling, task management, predictability
- 6. Vazifa (task) tushunchasi va uning parametrlarini tavsiflash.** *Tayanch so'zlar:* task, period, execution time, deadline, release time
- 7. Real vaqt tizimlarida vazifalarni rejalashtirish usullari.** *Tayanch so'zlar:* scheduling, static scheduling, dynamic scheduling, feasibility, priority
- 8. Rate Monotonic Scheduling algoritmi va uning xususiyatlari.** *Tayanch so'zlar:* RMS, periodic task, fixed priority, utilization bound, scheduling theory
- 9. Earliest Deadline First algoritmi va uning afzalliklari.** *Tayanch so'zlar:* EDF, dynamic priority, deadline, optimal scheduling, real-time analysis
- 10. Real vaqt tizimlarida preemptive va non-preemptive rejalashtirish.** *Tayanch so'zlar:* preemption, context switching, latency, task control, scheduling policy
- 11. Real vaqt tizimlarida uzilishlarga ishlov berish.** *Tayanch so'zlar:* interrupt, ISR, latency, response time, hardware event
- 12. Real vaqt tizimlarida sinxronizatsiya va o'zaro bloklanish muammolari.** *Tayanch so'zlar:* mutex, semaphore, deadlock, priority inversion, synchronization
- 13. Priority inversion muammosi va uni bartaraf etish usullari.** *Tayanch so'zlar:* priority inversion, priority inheritance, ceiling protocol, critical resource, blocking time
- 14. Real vaqt tizimlarida xotirani boshqarish masalalari.** *Tayanch so'zlar:* deterministic allocation, dynamic memory, fragmentation, memory pool, predictability
- 15. Real vaqt tizimlarida resurslarni taqsimlash va boshqarish.** *Tayanch so'zlar:* shared resource, resource allocation, scheduling, synchronization, access control
- 16. Embedded tizimlar va real vaqt tizimlari o'rtasidagi bog'liqlik.** *Tayanch so'zlar:* embedded system, microcontroller, RTOS, hardware integration, control system
- 17. Real vaqt tizimlarida vaqt tahlili va javob vaqtini hisoblash.** *Tayanch so'zlar:* response time analysis, worst-case execution time, latency, schedulability, timing analysis

- 18. Worst-Case Execution Time (WCET) tushunchasi va uning ahamiyati.** *Tayanch so'zlar:* WCET, time bound, analysis, predictability, real-time guarantee
- 19. Real vaqt tizimlarida ishonchlilik va xatoliklarga bardoshlilik.** *Tayanch so'zlar:* reliability, fault tolerance, redundancy, fail-safe, recovery
- 20. Real vaqt tizimlarida apparat va dasturiy ta'minot integratsiyasi.** *Tayanch so'zlar:* hardware-software co-design, sensor, actuator, embedded control, interfacing
- 21. Tarmoq orqali ishlovchi real vaqt tizimlari va ularning xususiyatlari.** *Tayanch so'zlar:* networked real-time system, communication delay, distributed control, synchronization, protocol
- 22. Avtomatik boshqaruv tizimlarida real vaqt ishlov berish masalalari.** *Tayanch so'zlar:* control loop, feedback, timing constraint, stability, automation
- 23. Robototexnikada real vaqt tizimlarining roli.** *Tayanch so'zlar:* sensor fusion, control signal, path planning, actuation, real-time response
- 24. IoT va cyber-physical systemsda real vaqt tizimlari.** *Tayanch so'zlar:* IoT, CPS, sensor network, edge control, event-driven processing
- 25. Real vaqt tizimlarida xavfsizlik va himoya masalalari.** *Tayanch so'zlar:* safety, security, secure control, fault detection, trusted operation
- 26. Real vaqt tizimlarida testlash va verifikatsiya usullari.** *Tayanch so'zlar:* verification, validation, simulation, timing test, formal methods
- 27. Real vaqt tizimlari uchun dasturlash tillari va vositalari.** *Tayanch so'zlar:* C/C++, Ada, embedded programming, compiler optimization, RTOS tools
- 28. Zamonaviy RTOS misollari va ularning qiyosiy tahlili.** *Tayanch so'zlar:* FreeRTOS, VxWorks, QNX, Zephyr, deterministic kernel
- 29. Real vaqt tizimlarini loyihalash bosqichlari va metodologiyasi.** *Tayanch so'zlar:* talablar tahlili, arxitektura, timing analysis, implementation, deployment
- 30. Real vaqt tizimlarining zamonaviy rivojlanish tendensiyalari.** *Tayanch so'zlar:* edge intelligence, autonomous control, cyber-physical integration, low-latency AI, future systems

II.BITIRUV MALAKAVIY ISH

1.1. Bitiruv malakaviy ish ni bajarishning maqsad va vazifalari

Bakalavr bitiruv malakaviy ishi — talabaning diplom loyihasida o‘z aksini topishi kerak bo‘lgan mutaxassislik bo‘yicha tayyorgarligini sinash bo‘lib, ushbu bosqichda talabaning umumiy, ilmiy-texnik va kasbiy-ta’limiy saviyasi namoyon bo‘ladi; dasturiy va apparat vositalari bilan ishlash bo‘yicha mustaqil professional faoliyat yuritish ko‘nikmalari mustahkamlanadi va muammolarni hal etishdagi ijodiy yondashuvi shakllanadi. Bu, avvalo, birinchi marotaba talabaning amaliy ishida uning ko‘p qirrali ilmiy-texnik va muhandislik masalalari, kompyuter tizimlari va tarmoqlar, dasturlash, algoritmlash, sun’iy intellekt, axborot xavfsizligi, ma’lumotlar bazasi, raqamli qurilmalar va dasturiy ta’minot kabi sohalar bilan bog‘liqligi aks etadi. Talaba tomonidan bajarilgan bakalavr diplom loyihasi bir qator zamonaviy texnologik, ijtimoiy va iqtisodiy talablarga javob berishi, IT sohasidagi yutuqlar, amaliy va ilmiy yechimlar, shuningdek, O‘zbekistonning raqamli iqtisodiyot va axborot texnologiyalari sohasidagi rivojlanish yo‘nalishlarini o‘zida mujassam etishi lozim.

Bitiruv malakaviy ishni bajarishdan maqsad:

- tanlangan mutaxassislik bo‘yicha nazariy va amaliy bilimlarni mustahkamlash va kengaytirish;
- olingan bilimlarni muayyan ilmiy, texnikaviy, ishlab chiqarish, iqtisodiy va ijtimoiy vazifalarni hal etishda qo‘llash;
- ijodiy ishlash, hal etilayotgan muammoning qo‘yilishidan boshlab, uni tahlil qilish, texnik yechimlar ishlab chiqish va qaror qabul qilishda mas’uliyatni his etishga o‘rgatish;
- zamonaviy ishlab chiqarish, texnika, raqamli texnologiyalar va iqtisodiyot rivojlanish sharoitida talabalarni mustaqil ishlashga tayyorlash.

1.2. Bitiruv malakaviy ishni bajarilishiga qo‘yilgan talablar:

1. Ilmiylik va dolzarblik

○ Bitiruv ishi zamonaviy ilmiy-texnik muammolarga asoslangan bo‘lishi, tanlangan mavzu axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) sohasida dolzarb muammoni yoritishi kerak.

2. Nazariy va amaliy asoslash

○ Ishda mavzuning nazariy asoslari, amaliy yechimlari, ilg‘or tajriba va texnologiyalar tahlil qilinishi lozim.

○ Talaba nazariy bilimlarini amaliy dasturiy yoki texnik loyihada namoyon eta olishi kerak.

3. Innovatsion va texnologik yondashuv

- Bitiruv ishida yangi texnologiyalar, algoritmlar, platformalar yoki metodlardan foydalanish maqsadga muvofiq.
- Loyihada dasturlash tillari, ma'lumotlar bazalari, tarmoqlar, apparat vositalari bilan ishlash bo'yicha texnik tafsilotlar ko'rsatilgan bo'lishi kerak.

1.3. Bitiruv malakaviy ishi rahbarlarining vazifalari:

Bitiruv malakaviy ish rahbari — bu bitiruvchi talabaning ilmiy-metodik va amaliy faoliyatini boshqaruvchi, unga yo'l-yo'riq ko'rsatadigan mas'ul shaxs hisoblanadi. Rahbarning asosiy vazifasi — talabaning ilmiy-tadqiqot ishini to'g'ri yo'naltirish, uni mustaqil fikrlash va yechim topishga o'rgatish, BMI ni sifatli, o'z vaqtida va belgilangan talablarga muvofiq tayyorlashga ko'maklashishdan iborat. Rahbar, avvalo, bitiruv ishining mavzusini tanlashda talabaga maslahat beradi, mavzuning dolzarbligini, mutaxassislik yo'nalishiga mosligini va uning ilmiy-amaliy ahamiyatini baholaydi. Talaba bilan birgalikda ish rejasini ishlab chiqadi, rejaning har bir bandi bo'yicha tavsiyalar beradi va uni bosqichma-bosqich nazorat qilib boradi. BMI rahbari talabaning nazariy tayyorgarligi va amaliy ko'nikmalarini chuqurlashtirishga xizmat qiluvchi ilmiy adabiyotlar, metodik manbalar, texnologik hujjatlar bilan ishlash ko'nikmalarini shakllantirishda yordam beradi. Ishning bajarilish jarayonida yuzaga keladigan muammolarni aniqlash va hal etishda yo'l-yo'riq ko'rsatadi. Ayniqsa, dasturlash, algoritmlash, tizim arxitekturasini, axborot xavfsizligi yoki boshqa mutaxassislikka xos masalalarda aniq texnik maslahatlar berishi lozim. Bitiruv ishining yozma qismi tayyorlangach, rahbar uni ilmiy va uslubiy jihatdan ko'rib chiqadi, tahririy tavsiyalar beradi, imlo va grammatik xatolarni tuzatishda yordam beradi. Ishning rasmiylashtirish qoidalariga muvofiqligini nazorat qiladi. Shuningdek, rahbar talabani og'zaki himoyaga tayyorlaydi: taqdimot materiallarini tayyorlashda ko'maklashadi, savol-javoblar bo'yicha mashq qilinishini tavsiya qiladi. Himoya oldidan rahbar BMIga yozma tarzda ilmiy xulosa tayyorlaydi va talabaning ishini baholash bo'yicha o'z fikrini bildiradi. Agar ish himoya qilishga tayyor deb topilsa, uni taqdim etishga ruxsat beradi. Rahbar faoliyati davomida talabaning mustaqilligini, ijodiy yondashuvini va mas'uliyatini shakllantirishga alohida e'tibor qaratadi.

2. Bitiruv malakaviy ishning tarkibi:

Bitiruv malakaviy ish(BMI)ning tarkibi odatda oliy ta'lim muassasasining talablariga qarab farqlanishi mumkin. Biroq, umumiy qabul qilingan standart tuzilma quyidagicha bo'ladi:

1. Kirish (Introduction)

- Mavzuning dolzarbligini
- Maqsad va vazifalar
- Tadqiqot obyekti va predmeti
- Ishning ilmiy yangiligi
- Amaliy ahamiyati
- Ishning tuzilmasi haqida qisqacha ma'lumot

2. Nazariy qism (Adabiyotlar sharhi / Tahliliy qism)
 - Mavzu bo'yicha mavjud ilmiy adabiyotlar tahlili
 - Mavjud muammolar va ularning yechimlari
 - O'rganilgan nazariy asoslar
3. Asosiy qism (Tadqiqot yoki tajriba natijalari)
 - Tadqiqot metodologiyasi
 - Eksperiment yoki amaliy tadqiqot tafsilotlari
 - Natijalar va ularning tahlili
 - Jadval, grafik, diagrammalar orqali tasvirlar
4. Taklif va tavsiyalar
 - Muammoni hal qilishga qaratilgan amaliy yoki ilmiy takliflar
 - Kelgusida tadqiqotni davom ettirish imkoniyatlari
5. Xulosa
 - Asosiy natijalar umumlashtiriladi
 - Mavzuning o'rganilgan jihatlari yakuniy xulosa bilan ta'minlanadi
6. Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati
 - GOST yoki universitet talablari asosida rasmiylashtirilgan bibliografiya
7. Ilovalar (agar kerak bo'lsa)

3.Bitiruv malakaviy ishni himoya qilish.

Rejalashtirilgan tartibda rasmiylashtirilgach Bitiruv malakaviy ishi (qo'lda bajarilishi yoki kompyuterda tayyorlangan bo'lishi mumkin) talaba tomonidan rahbarga taqdim etiladi. Rahbar, o'z navbatida, ushbu talaba tomonidan bajarilganiga ishonchi bildirganidan so'ng, ishni himoya qilish uchun kafedra mudiriga taqdim etadi. Taqrizda talabaning faoliyati, diplom ishidagi dolzarb masalalar, Bitiruv malakaviy ishining nazariy va amaliy ahamiyati, foydalanilgan uslublar, tegishli o'quv materiallar asosida ishning tayyorlanganligi tahlil etiladi. Bitiruv malakaviy ishini talaba tomonidan tayyorlanganligi haqida kafedra tavsiyanomasiga asosan, yakuniy davlat attestatsiya komissiyasi qarori bilan himoyaga ruxsat etiladi. Agar, kafedra tomonidan Bitiruv malakaviy ish ini himoyaga kiritish mumkin emas deb hisoblansa, masala kafedra majlisida, rahbar ishtirokida muhokama qilinadi. Kafedra majlisi bayonnomasi kafedraning umumiy tavsiyasi bilan rektorga taqdim etiladi. Himoyaga kiritilgan Bitiruv malakaviy ish taqrizga yo'naltiriladi. Taqrizchilar sifatida bitiruvchining ish sohasiga mos muassasalar vakillari safidan tanlanadi. Taqrizchilar sifatida boshqa oliy ta'lim muassasasi professor-o'qituvchilari ham jalb etilishi mumkin. Barcha ta'lim yo'nalishlarida asosiy himoyadan 30 kun oldin Bitiruv malakaviy ishi dastlabki himoyasi tashkil etilishi, unga barcha bitiruvchilarning taklif etilishi kerak. Bitiruv malakaviy ishi yakuniy davlat attestatsiya komissiyasiga taqdim etiladi. Bitiruv malakaviy ishi himoyasi zamonaviy axborot texnologiyalari vositasida taqdimot (prezentatsiya) shaklida o'tkazilishi mumkin. Aynan, axborot-resurs markazi va

kafedrada yoki internet resurslaridan foydalanib aynan diplom ishi yakuniy holatda vaqtidan kechiktirmasdan elektron shaklga o'tkazilgan holda taqdim etilishi lozim. Bitiruv malakaviy ish ining himoyasidan so'ng (kamida 10 yil) oliy ta'lim muassasasida saqlanishi lozim.

4.Bitiruv malakaviy ishlarini baholash mezonlari.

Bitiruv malakaviy ishi tushuntirish qismi va grafik qismdan (chizmalardan) tashkil topadi. Tushuntirish qismida Bitiruv malakaviy ishi bo'yicha hamma asosiy ma'lumotlar to'liq keltirilgan bo'ladi. Tushuntirish qismi Bitiruv malakaviy ishining zaruriy qismlaridan iborat bo'lib, u quyidagi tarkibga ega bo'ladi: kirish, annotatsiya, mundarija, asosiy matn, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati, ilovalar va boshqa shu kabi elementlar. Zaruriyatga qarab bitiruvchi talabaning loyihasi bo'yicha maslahatchilari, rahbari, taqrizchi, ishni baholovchi komissiya a'zolari tomonidan e'tiborga olinadigan asosiy jihatlar quyidagilardir:

- tanlangan mavzu dolzarbligi;
- nazariy va amaliy ahamiyati;
- grafik chizmalar sifati va ularning aniqligi;
- foydalanilgan adabiyotlarning asoslanganligi va ularni qo'llash darajasi;
- mustaqil ijodiy yondashuv va muammo yechimi sifatida takliflar.

Kafedra tomonidan tayinlangan komissiya a'zolari Bitiruv malakaviy ishini to'liq bajarilganligini va ilmiylik, amaliylik jihatlarini tahlil qiladi. Bitiruv malakaviy ishida, ilgari bajarilgan mustaqil ishlarning natijalari yoki boshqa qarorlar, xulosalar bilan boyitilganligi ham inobatga olinadi.

Bitiruv malakaviy ishining tushuntirish qismi bilan birga grafik chizmalar, rasmlar, eskizlar, diagrammalar, sxemalar va boshqalar, shuningdek, zaruriy qo'shimcha ma'lumotlar elektron shaklda topshirilishi mumkin. Bitiruv malakaviy ishlarining tuzilish tartibi, mavzusi, maqsadi va vazifalaridan kelib chiqib, elektron shaklda taqdimot materiallari kiritilishi mumkin. Tushuntirish qismi kamida 40–60 bet hajmida bo'lishi tavsiya etiladi. Tushuntirish qismini rasmiylashtirishda quyidagilarga e'tibor berish lozim:

- tushuntirish matni orasida ochiq joy qolmasligi;
- har bir bob tugagach yangi bob yangi sahifadan boshlanishi;
- tushuntirish matni bir xil rangda yozilishi (matnga qalam bilan qo'shimcha rangda izoh berilmasligi kerak);
- matn A4 formatdagi oq qog'ozda yozilishi (chapdan 30 mm, o'ngdan 10 mm, yuqoridan 20 mm, pastdan 20 mm bo'lishi lozim);
- har bir sahifada 27–28 ta qatordan iborat matn bo'lishi kerak.

Texnologik jarayonlarning operatsiyalari va elektron ko‘rinishdagi materiallar standart formatlarda tayyorlanadi. Taqriz (ya’ni ishga baho beruvchi xulosa) mutaxassislikka oid soha vakili tomonidan yozma tarzda taqdim etiladi. Chizmalar formati, shartli belgilar, shrift va masshtablar amaldagi standartlarga qat’iy muvofiq bo‘lishi shart. Odatda chizmalar A2 formatida yoki elektron shaklda topshiriladi. Chet tilida yozilgan ishlar davlat tilidagi annotatsiya bilan birga taqdim etilishi va himoyada tarjimai bo‘lishi lozim.

“5” baho (90–100 ball):	Talaba belgilangan vaqt mobaynida tanlangan mavzu bo‘yicha bajarilgan ishlarni aniq va to‘liq bajaradi va mavzu bo‘yicha mustaqil qarashlari, fikrlari, xulosalari mavjud; Amaliy va nazariy bilimlarini namoyon qilgan; Taqdimot chiroyli, savollarga to‘liq va asosli javob bergan.
“4” baho (70–89 ball)	Talaba bajargan ishlarni qisqa va lo‘nda aytib beradi. Bitiruv malakaviy ish i topshirig‘ida berilgan mavzuni qurilish sohasida tutgan o‘rni, hamda shu tarmoqning kelajagi va ish topshirig‘i o‘ziga xos tomonlari to‘g‘risida gapirib beradi. Bitiruv malakaviy ish ining bo‘limlarini yoritadi. Talaba tegishli chizmalarni tushuntirib bera oladi. Yuqori nazariy va amaliy bilimga ega ekanligini ko‘rsatadi. Mustaqil mulohaza yuritib, nazariy bilimni amalda qo‘llay oladi. DAK a‘zolari tomonidan berilgan savollarga to‘liq javob bera oladi
“3” baho (60–69 ball)	Talaba bajargan ishlarni aytib beradi, amaliy talab etilgan rasm va chizmalarni tushuntirib bera oladi. Bitiruv malakaviy ish i topshirig‘ida berilgan mavzuni va ish topshirig‘ini o‘ziga xos tomonlari to‘g‘risida gapirib beradi. Topshiriq mohiyatini tushunish, uni bilish va aytib berish ko‘nikmalariga ega ekanligini, oldiga qo‘yilgan masalani yechish yo‘llari bo‘yicha ma’lum bir tasavvurga ega ekanligini ko‘rsatadi.
“2” baho (0–59 ball)	Talaba bajargan Bitiruv malakaviy ish ini yoritib bera olmaydi, belgilangan vazifa va maqsad bo‘yicha aniq tasavvuri yo‘q, berilgan savollar bo‘yicha yetarli nazariy hamda amaliy bilimga hamda ko‘nikmaga ega emas.

ASOSIY ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Musayev M.M., Raxmetov F.A., Shukurov K.E. Informatsionniye texnologii v zdroyaooxranenii: Uchebnoye posobiye. T.: "Aloqachi". 2019.-116 s.
2. S.A Feylamazova. Informatsionniye texnologii v meditsine: Uchebnoye posobiye dlya meditsinskix kolledjey. - Maxachkala: DBMK, 2016,- 163s.
3. Christopher D. Manning Prabhakar Raghavan Hinrich Schutze. An Introduction to Information Retrieval, Cambridge University Press — Cambridge, 2009. Rejim dostupa: <http://nlp.stanford.edu/IR-book/information-retrieval-book>.
4. Kristofer D.Manning(Stenfordskiy universitet), Prabhakar Raghavan (Yahoo! Research), Xaynrix Shyutse (Universitet Shtutgarta) Vvedeniye v informatsionniy poisk, Moskva • Sankt-Peterburg • Kiyev 2011.
5. V.S.Gusev Google effektivniy poisk kratkoye rukovodstvo, dialektika Moskva, Sankt-Peterburg, Kiyev, 2006.
6. T.V.Batura. Matematicheskaya lingvistika i avtomaticheskaya obrabotka tekstov na yestestvennom yazike, ucheb, posobiye / T. V. Batura ; Novosib. gos. un-t. - Novo- sibirsk : RITS NGU, 2016. - 166 s.
7. T.V.Batura, M. V.Charinseva. Osnovi obrabotki tekstovoy informatsii. Uchebnoye posobiye. Novosibirsk 2016 g.
8. Lukashevich N.V. Avtomaticheskii analiz tonalnosti tekstov po otnosheniyu k zadannomu obyektu i yego xarakteristikam // Elektronniye biblioteki. 2015. T. 18. № 3-4. S. 88-119.
9. e-Government Applications, by Nag Yeon Lee and Kwangsok Oh, printed in Scand-Media Corp., Ltd., Republic of Korea, in 2011, pages - 109.
10. Gorana Celebic, Dario Ilija Rendulic. Basic Concepts of Information and Communication Technology. Zagreb, 2011
11. S.S.Kosimov. Axborot texnologiyalari. T.: Aloqachi, 2006

QO'SHIMCHA ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Gelman V.Y. Meditsinskaya informatika: praktikum - S.-116.: Piter, 2002,- 320s.
2. Korenevskiy I.A. Biotexnicheskiye sistemi meditsinskogo naznacheniya: ucheb. dlya vuzov I.A.Korenevskiy, YE.P.Popechitelen. - Stariy Oskol: TNT. 2013
3. Kobrinskiy B.A. Meditsinskaya informatika: uchebnik. – M. Izdatelskiy sentr «Akademiya». 2013.
4. Korolyuk N.P. Meditsinskaya informatika: Uchebnik, - Samara: OOO «Ofort»: GBOU VPO «SamGMU». 2012.

5. Demidova L.A. Omelchenko V.P. Informatika. Praktikum dlya meditsinskix uchilish. -M., Media, 2015
6. Svetkova L.S. Afaziya i vosstanovitelnoye obucheniye. Uchebnoye posobiye. - M., Prosvesheniye, 1988 -207s.
7. G. M. Chechin, YE. V. Polojensev, S. V. Nijnikova "Poisk informatsii v seti Internet", Metodicheskiye ukazaniya dlya studentov RGU Rostov-na-Donu 2001 g.
8. V.N.Romanenko, G.V.Nikitina Setevoy informatsionniy poisk SPb «Professiya», 2005, 288 st.
9. Vo Pang, Lillian Lee. Opinion Mining and Sentiment Analysis // Foundations and Trends in Information Retrieval. 2008. № 2. P. 1-135.
10. Kobzareva T. Y. V poiskax sintaksicheskoy strukturi: avtomaticheskii analiz russkogo predlozheniya s oporoy na segmentatsiyu. M.:RGGU, 2015.371s.
11. Mirziyov SH.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik xar bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2016 yil yakunlari va 2017 yil istiqbollariga bag'ishlangan majlisidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining nutqi. 7/ Xalq so'zi gazetasi. 2017 yil 16 yanvar, №11.
12. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi — T.: O'zbekiston, 2014. -46 b.
13. Axborotlashtirish tug'risida. O'zbekiston Respublikasining qonuni. 2003 yil 11 dekabr. // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 2004 y., I-2-son, 10-modda; O'zbekiston Respublikasi qonun xujjatlari to'plami, 2014 y., 36-son, 452-modda.
14. Telekommunikatsiyalar tug'risida O'zbekiston Respublikasining Qonuni. Toshkent sh., 1999 yil 20 avgust, 822-1-son // (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1999 y., 9-son, 219-modda; O'zbekiston Respublikasi qonun xujjatlari to'plami, 2004 y., 37-son, 408-modda; 2005 i., 37-38-son, 279-modda; 2006 y., 14-son, 113-modda; 2007 y., 35-36-son, 353-modda; 2011 y., 52-son, 557-modda; 2013 y., 1-son, 1-modda, 18-son, 233-modda).
15. Elektron xukumat to'g'risida O'zbekiston Respublikasining Qonuni. O'zbekiston Respublikasi qonun xujjatlari to'plami, 2015 y., 49-son, 611-modda.
16. Raxmanqulova S.I. Tadbirkorlar uchun on-layn interaktiv xizmatlar. - Toshkent: «infoCOM.UZ».- 2015. - 175 b.
17. Ruzmetova X.N. Kompaniya biznes-jarayonlarini axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida takomillashtirish - Dissertatsiya -Toshkent, - 2012
18. Inson taraqqiyoti. Darslik. i.f.d., prof. Q.X.Abduraxmonov taxriri ostida. -T.: Fan va texnologiya, 2014. -476 s.